

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



## DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVINING O'ZBEKISTON TAJRIBASI. OCHIQ JAMIYAT YURITISH KONSEPSIYASI

**Muhabbat Salieva**

*O'qituvchi, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Davlat, ma'naviyat, tarbiya, jamiyat, qonun, demokratiya, tizim, me'yor, siyosat, huquq, konsepsiya.

**Annotatsiya:** O'zbekiston mustaqilligi davrida xalqimizning huquqiy an'alarini har tomonlama va to'liq yoritish, aniq manbalar asosida huquqiy muloqot tizimini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratilmoqda. Binobarin, mustaqillik yillarida davlat tomonidan qabul qilingan qonunlarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar huquqiy tizimni takomillashtiradi, davlat va jamiyat boshqaruvida huquqiy muloqotning muhim jihatlarini ochib beradi.

Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad - "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun", degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat. Davlatni samarali boshqarish uchun to'g'ri va aniq axborotdan foydalanish talab qilinadi. Ayni bugungi demokratik davlat qurilishi rivojlanayotgan bir davrda qonunchilik tizimining yetakchi vazifasi - huquqiy me'yorlarni xalqqa tushuntirishdan iborat, ya'ni samarali huquqiy kommunikatsiya jarayonlarini rivojlantirgan holda, qonun - eng avvalo, ma'naviy-tarbiyaviy, ahloqiy kuchga ega bo'lishi zarurligi davr masalasiga aylangan.

**UZBEKISTAN'S EXPERIENCE IN PUBLIC AND PUBLIC ADMINISTRATION. OPEN SOCIETY CONCEPT****Mukhabbat Saliyeva**

*Candidate of Philological Sciences, Associate Professor,  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

---

**ABOUT ARTICLE**

---

**Key words:** systematic approach, special system of terminology, construction field, organizational rules.

**Abstract:** During the period of independence of Uzbekistan, this creates ample opportunities for a comprehensive and perfect coverage of the development of the traditions of law and order and the system of legal communication of our people based on specific sources. As a result, changes and additions to the laws issued by the state during the years of independence of the Uzbek people will improve the legal system and reveal important aspects of legal communication in the management of the state and society.

Political activity is growing in our society, profound reforms are being carried out in all spheres. Their goal is to build a democratic state and a just society, where the implementation of a simple and clear principle "The interests of the person above all else" is of paramount importance. Effective government requires the use of correct and accurate information. In the modern era of a developing democratic state, the leading task of the legislative system is to explain the legal norms to the people, that is, with the development of effective processes of legal communication, the need for the law to have, above all, spiritual, educational and moral strength has become a matter of time.

---

**ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА В УПРАВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВОМ И ОБЩЕСТВОМ. КОНЦЕПЦИЯ ВЕДЕНИЯ ОТКРЫТОГО ОБЩЕСТВА****Мухаббат Салиева**

*кандидат филологических наук, доцент,  
Ташкентский государственный университет востоковедения  
Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** Государство, духовность, образование, общество, право, демократия, система, норма, политика, закон, концепция.

**Аннотация:** В период независимости Узбекистана создается широкая возможность для всестороннего и полноценного освещения правовых традиций нашего народа и развития системы правовой коммуникации на основе конкретных источников. В результате изменения и дополнения к законам, изданным государством в годы независимости узбекского народа, позволят усовершенствовать правовую систему и раскрыть важные аспекты правовой коммуникации в управлении государством и обществом.

В нашем обществе повышается политическая активность,

во всех сферах осуществляются глубокие реформы. Их цель – построение демократического государства и справедливого общества, где первостепенное значение имеет реализация простого и ясного принципа «Интересы человека превыше всего». Эффективное управление государством требует использования правильной и точной информации. В современную эпоху развития демократического государства основной задачей законодательной системы является разъяснение народу правовых норм, то есть с развитием эффективных процессов правовой коммуникации возникает необходимость того, чтобы право имело, прежде всего, духовная, образовательная и нравственная сила стала вопросом времени.

---

## KIRISH

O'zbekistonda mustaqillik davri mobaynida butunlay yangi tarixiy sharoitda zamonaviy davlatchilikka asos solindi. Huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati vujudga keldi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, davlat boshqaruvi organlari, hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy tuzilmasi, vazifalari va funksiyalarini qayta ko'rib chiqishdan boshlandi. Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohada tub burilishlar yasaldi. Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko'lamlil islohotlarni amalga oshirish orqali davlat va jamiyat boshqaruvining mutlaqo yangi O'zbekiston tajribasi tizimi yaratildi. Ochiq jamiyat yuritish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Masalan, "Amaliyot natijadorlik, inson manfaatlarini ta'minlash - jamiyatni isloh etishning bosh maqsadidir", degan g'oya, adolatli davlat boshqaruvining huquqiy mezoni bo'lib qoldi.

Ijro etuvchi hokimiyatni demokratlashtirish jarayoni izchil olib borilmoqda. Hukumatning vazifa va vakolatlari kengaytirilib, parlament oldida hisob berish darajasi va mas'uliyati kuchaytirildi. Bu Konstitutsiyaning 7 - moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir" degan ulug'vor g'oyaning amaliy ifodasi, desak tamomila to'g'ri bo'ladi", degan tamoyil asosiga mustahkamlandi. Harakatlar strategiyasi doirasida davlat boshqaruvini yangi zamonaviy innovatsiyalar doirasida tatbiq etish, aksariyat vazirlik va idoralarning vazifa va funksiyalarini qayta ko'rib chiqish, tegishli sohalarda to'planib qolgan muammolarni samarali hal etish maqsadida, yangi vazirlik va idoralar tuzildi. Binobarin: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Buyuk kelajagimiz bugundan boshlanadi" - bor kuch va salohiyatimizni ishga solishimiz zarur, deya islohotlarning milliy g'oya asosida xizmat qilishiga qaratildi. Mamlakatdagi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, maktabgacha ta'lim, tashqi savdo va innovatsion rivojlanish vazirliklari, turizmni rivojlantirish va mudofaa sanoati davlat qo'mitalari, hamda loyiha boshqaruvi milliy agentligi kabi bir qator yangi vazirlik va idoralar shular jumlasidandir. Yangi bosqichdagi innovatsion texnologiyalarning zamonaviy ilm-fan taraqqiyotidagi roli, xalqqa yaratilgan imkoniyatlar, kishilardagi kelajakka bo'lgan ishonch tuyg'ularining uyg'onishi, bularning barchasida davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan yangi qaror va farmonlarning mohiyatini aholiga yetkazishda huquqiy kommunikatsiya muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2017 yil sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi tasdiqlandi. Unga ko'ra davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilandi va maxsus "yo'l xaritasi" asosida yana 100 dan ortiq davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish belgilandi. Ma'lumki, asosiy Qomusimizda "davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi" to'g'risidagi norma belgilab qo'yilgan. Uning ijrosini amalda ta'minlash maqsadida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi qabul qilindi. Qisqa vaqt ichida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida yangi tizimdagi, vazirlik va idoralar faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslari, ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari va funksiyalari, hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirilib hayotga tatbiq etilganligi aholining yaratilayotgan islohotlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirdi. Ma'muriy islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad - qulay va professional ijro organlari tizimini, zamonaviy menejmentga asoslangan boshqaruv tuzimini yaratishdan iborat. Mahalliy hokimliklarning moddiy-texnika ta'minoti va xodimlar mehnatiga haq to'lash tizimi qayta ko'rib chiqilib, hokimlarning kadrlarni joy-joyiga qo'yishdagi vakolatlari kuchaytirildi. Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish bo'yicha mahalliy organlarning mustaqilligi ta'minlangan holda choralar amalga oshirilganligi bilan e'tiborlidir.

Ma'lumki, xalqning ichiga kirib borish, aholi bilan muloqot o'rnatish yo'lida birinchi qadam sifatida har bir tuman va shaharda xalq qabulxonalari tashkil etildi. Ular odamlarning ko'plab muammolarini yechishda amaliy yordam beradigan yaxlit tizimga aylandi. Bir yilda 1,5 millionga yaqin murojaat ko'rib chiqilganligi shuni ko'rsatadiki, insonlarning Xalq qabulxonalariga bo'lgan ishonchi tobora ortib bormoqda. Ushbu tuzilmalarning davlat organlari, mansabdor shaxslar mas'uliyatini oshirishdagi roli borgan sari ko'proq sezilmoqda .

Davlat va jamiyat o'rtasida vositachi sifatida xalq qabulxonalari xizmatidan foidalanish imkoniyati oshirildi. Fuqarolarning vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirish kabi konsepsiya tizimida, davlat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasi sezilarli o'sdi. Konstitutsiyaviy qoidaga - ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlashga qaratilishi shart ekanligi ko'rsatildi.

"Ijtimoiy adolat - bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir". Prezident devonining Fuqarolar huquqlarni himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmatiga ushbu masalalar bilan bevosita shug'ullanish vazifasini yuklash ko'zda tutilgan. Mazkur xizmat tarkibida yangi tuzilma tashkil etilib, unga tezkor xizmatlari agentligi deb nom bersak, ayni muddao bo'ladi. Ma'lumki, hammamiz deyarli har kuni turli idoralarga murojaat qilamiz. Deylik, notarius, arxiv yoki kadastr idorasidan, gaz, elektr, suv ta'minoti tashkilotidan yoki mahalladan oddiy bir ma'lumotnoma - olish uchun ba'zan kun bo'yi navbatda turishga to'g'ri keladi. Ana shunday, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan ishlar uchun odamlarning qancha vaqti, asabi ketadi. Ayni shularning hammasini bir joyda markazlashtirgan holda, tezlik bilan hal qilsa bo'ladi-ku! Mamlakatimiz barcha shahar va tumanlarida misol uchun, olis Chimboy yoki Qo'rg'ontepa tumanida ham aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatadigan idoralar mavjud. Ular xalqqa xizmat qilish uchun tuzilgan. Lekin, aksariyat hollarda ular xalqdan uzilib qolgan desak, bu ham to'g'ri bo'ladi. Aslida XXI asrda - Internet va axborot kommunikatsiyalari davrida bu ishlarning barchasini uydan chiqmasdan turib, kompyuter yoki uyali telefon orqali bajarish imkoni bor-ku! Rivojlangan davlatlarda bunday tizim allaqachon yo'lga qo'yilgan. Shu tizimni yurtimizda ham joriy etishga, nima, imkoniyatimiz yo'qmi? Bor, albatta. Faqat bu masalaga qandaydir arzimas, kichik masala, deb

qarashga o'rganib qolganmiz. Holbuki, inson hayoti, inson manfaati bilan bog'liq sohalarda mayda narsalarning o'zi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Shuning uchun biz bundan buyon davlat xizmatlarini ko'rsatish borasida ishni mutlaqo yangicha asosda tashkil etamiz", deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 25 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali marosimdagi nutqida.

2017-2021 yillarda, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirish. Joylarda ishlarni tashkil etish, birinchi navbatda, jamoatchilik oldida hisobot berish, shakllari va usullarini tubdan takomillashtirish. Aholining hayot sifati va darajasini yuksaltirish, davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatsizligi holatlariga qat'iy ravishda barham berish. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha, yangicha tizim-sektor faoliyati yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlari tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengresi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshchiligida, kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 4 ta sektorlarga bo'lingan holda, sektorlar rahbarlari tomonidan oilalardagi holat o'rganildi. Ularda aniqlangan aksariyat muammolar joyida hal etilib, hal etilishi murakkab bo'lgan muammoli masalalar "yo'l xaritalari"ga kiritilib bajarilishi nazoratga olindi. Sektor rahbarlari tomonidan 3,5 million oiladagi holat o'rganilib, 359 mingdan ortiq muammo, aniqlangani va ularning 67 foizi joyida hal etilgani. Bu davrda Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosarlari - yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi tashkil qilindi. Shu o'rinda, mahallada xodimlar soni ikki baravarga ko'paytirilib, 400 ta mahalla binolari qurildi, rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi. "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmalari faoliyati takomillashtirildi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari uchun dam olish maskanlari tashkil etilib, barcha imtiyozlar yaratildi. Oilalar va mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirishga ko'maklashish, oilalarni mustahkamlash va barqarorligini ta'minlash maqsadida fuqarolar yig'inlari huzurida "Ota-onalar universiteti" tashkil etildi. O'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan fuqarolarning qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, takliflarini har tomonlama ko'rib chiqish va qo'llab-quvvatlash, bu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish maqsadida, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy Nizom tasdiqlandi.

Mazkur tuzilmalar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligi, joylardagi muammolarni chuqur tahlil etish mexanizmi va davlat organlari mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirish, ularning faoliyatini baholash mezoniga aylandi. O'tgan davr mobaynida Virtual qabulxona va Xalq qabulxonalariga jismoniy va yuridik shaxslardan 1 mln 400 mingdan ortiq murojaatlar tushgan, har bir ariza va shikoyatning qonun doirasida ko'rib chiqilishi qat'iy nazoratga olinganligi e'tiborlidir. 1mln 338 mingta murojaat mazmunan hal etilgan, ularning 919 mingdan ortig'i (66,5%) qanoatlantirilgan, 418 mingdan ortig'i (30%) bo'yicha huquqiy tushuntirishlar berilgan. Zamonaviy yuksalishlarning zamirida huquqiy kommunikatsiya tizimining yaxshi yo'lga qo'yilganligi alohida ko'zga tashlanadi. Respublikaning barcha viloyatlari, tumanlari va shaharlardagi xalq qabulxonalari aholi bilan

bevosita muloqotni, joylarda yuzaga keladigan muammolarni tezkor hal etish, kamchiliklarni bartaraf qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlamoqda. Bugungi kunda aholining Konstitusiyaviy huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilinishi, "virtual tizim va xalq qabulxonasi"lari aholini tashvishlantirayotgan masalalarni hal etiladigan maskanga aylandi. Shuni aytish joizki, Vazirlik va idoralar kesimida eng ko'p murojaatlar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga 134ming, Oliy sudga 89 ming, Bosh prokuraturaga 86 ming, Majburiy ijro byurosiga 67 ming, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga 65 ming, sog'liqni saqlash vazirligiga 52 ming, O'zbekneftgazga 38 ming, O'zbekenergoga 27 ming murojaatlar borligi e'tirof etilgan. Shungdek, murojaatlarda ko'rsatilgan asosiy muammolar, uy-joy va yer ajratish muammolari 14,2%, moddiy yordam ko'rsatish muammolari 4,14 %, mehnat va bandlik masalalari 8,7%, Aliment undirish muammolari 3,1 %, Bank-moliya sohasiga oid masalalar 5,5 %, Sud-huquq tizimiga oid masalalar 7,1 %, kommunal ho'jaligidagi muammolar 7,9%, Ta'lim-tarbiya sohasi bilan bog'liq muammolar 3,6%, murojaatlarning hududlar kesimidagi tahlili eng ko'p shikoyat va arizalar Toshkent shahri, ya'ni Toshkent, Qashqadaryo, Farg'ona va Andijon viloyatlari aholisidan kelib tushgan.

Murojaatlar asosida qabul qilingan farmon va qarorlar samaradorligi, murojaatlar bilan ishlash tizimining qonunchilik asoslari yaratildi. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, Prezident virtual qabulxonasi, dasturining yangi versiyasi ishlab chiqildi. Ayni chog'da barcha tizimlarning umumiy majmuasi huquqiy kommunikasiya shakllarining u yoki bu tarzda yo'nalishlarida amalga oshirilmoqda. Murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan muammolar yuzasidan 98 ta axborot-tahliliy materiallar tayyorlanib, ular asosida tegishli normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish chora-tadbiri belgilandi. Bu bilan aholining istak-xohishlari va takliflari asosida ko'plab hayotiy muhim masalalarda 50 dan ortiq farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan:

Aholi istak va takliflari asosida quyidagi:

- arzon uy-joylar qurish,
- ichimlik suvi, issiqlik ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini yaxshilash,
- yo'llarni ta'mirlash,
- mahsulot va xizmatlarni to'liq milliy valyutada sotishga o'tish,
- aholiga tibbiy yordam ko'rsatish,
- pensiya muammolarining amaliy choralari, fuqarolik pasportini rasmiylashtirish, ta'lim, uy-joy bilan ta'minlash, amnistiya masalalari, shuningdek davolanish uchun moddiy yordam berish sohalaridagi murojaatlar soni sezilarli darajada kamaydi. Murojaatlar sonining dinamikasi jarayoni, pasport tizimi rasmiylashtirish sohasida 2 martaga, ta'lim sohasida 1,8 martaga, uy-joy bo'yicha 1,6 martaga, amnistiya masalasida 1,5 martaga, davolanish uchun moddiy yordam berish borasida 1,4 martaga, o'rtacha hisobda oylik murojaatlar soni yil boshiga nisbatan 30 % ga kamayganligi, xalqning extiyojlarini ta'minlash borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar o'z natijasini berayotganligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda bir misol: Jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyilini qaror toptirish borasida asosiy vazifamiz - bu adolatli qonunlar qabul qilishdan iboratdir, Qonun adolatli bo'lsa, odamlar qonunni hurmat qiladi va unga itoat etadi. "Bugungi eng muhim vazifamiz - fuqarolar, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro mas'uliyat, huquq va burchga bog'liq ekaniga oid prinsipni izchil amalga oshirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bu prinsip mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalarni hal qilishda davlat va shaxs, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida samarali

hamkorlikni ta'minlaydigan konstitutsiyaviy asosdir". Shu o'rinda yana bir misol: Hech shubhasiz, oradan yillar, asrlar o'tadi, lekin xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lgan, Konstitutsiyamiz yangi-yangi avlodlar uchun hayot qomusi, davrning o'zi o'rta qo'yadigan dolzarb muammolarni yechish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib, xizmat qiladi deyiladi. O'zbekiston qonunlarida davlat va jamiyat boshqaruvi tajribasining ochiq jamiyat yuritish konsepsiyasiga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin. Binobarin, akademik Akmal Saidov qayd etganidek, "Bugungi ochiq jamiyat yuritish konsepsiyasi masalalari doirasida, O'zbekiston qonunlari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha asosiy qoidalarini: hayotning, shaxsiyatning, inson huquqlari va erkinliklarining shafqatsizligi va davlatning inson va fuqaro oldidagi mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan", deyiladi. Shuningdek, Xalqaro huquqning eng yuqori me'yorlariga sodiqlik, o'z milliy manfaatlarimiz bilan belgilanadi. Demokratiya va inson huquqlari jamiyatimizda faqat qonunlar bilan emas, balki odamlarning o'zini o'zi anglashi, ularning huquqiy tajribasi bilan belgilanadi.

### **XULOSA**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, dunyoning eng kuchli va katta davlatlari, O'zbekiston bilan hisoblashadigan, uning umumdunyoviy masalalarga tegishli fikr va xulosalarini inobatga oladigan davr keldi. Endi hamma gap ana shu mustahkam poydevorga tayanib, O'zbekistonning yangi davrdagi yangi taraqqiyotini ta'minlashdan iborat bo'lib qolmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev. Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolligimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.: "O'zbekiston" t.2. -507 b.
2. Mirziyoyev. Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. - T.: "O'zbekiston" t.3. -395 b.
3. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. - T.: "O'zbekiston" t.3. - 453b.
4. Saidov. A.H. Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan: pravovaya osnova nezavisimogo razvitiya. -T.: O'zbekiston. 2012i. -B. 78.
5. Xalq so'zi gazetasi 2020-2021 yillarda chop etilgan sonlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev nutqlaridan foydalanildi.